
Hunardan baraka topayotgan yosh tadbirkor

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini boshlash, yangi ish o'rinlarini yaratishni maqsad qilgan fuqarolarga ham keng imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa tadbirkorlar sonini yil sayin ortib borayotganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Farg'ona shahridagi "Cheksho'ra" MFYda ham tadbirkorlar soni 70 nafardan oshdi. Mahalla raisi G'ayratjon G'ofurovning ta'kidlashicha, hududda dehqonchilik asosiy drayverga aylanmoqda. Issiqxona qurib, mumay daromad topayotgan oilalar safi ham kengayib bormoqda. Shuningdek, turli yo'nalishlarda ham tadbirkorlik subyektlari ochilmoqda.

Ro'zimatjon Ergashev yosh tadbirkorlardan. Yoshligida bobosi, tajribali mexanik Madley otadan saboq oldi. 40 yil mobaynida traktorchi bo'lgan dadasi Abdujabbor Ergashev ham farzandining qiziqishlariga bee'tibor bo'lmadi.

Yosh temirchi hozirda kichik korxonasiga ega. Ikki nafar shogirdlariga har oyda 3 mln. so'mdan maosh bermoqda. O'zining esa oylik o'rtacha daromadi 15 million so'mga yetmoqda.

2023-04-13 16:24:08